



VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Achilova Nigora Xasanovna

*Samarqand viloyati Nurobod tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limiga
qarashli 25-umumiy o’rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar o’rtasida jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, unga ta’sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, jinoyatchilikning oldini olishda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda maktab psixologining o’rni va vazifalari yoritib beriladi. Profilaktik ishlarning samarali usullari, zamonaviy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: voyaga yetmaganlar, jinoyatchilik, profilaktika, ijtimoiy muhit, psixologik omillar, huquqbuzarlik, tarbiya, muloqot, ruhiy holat, psixik jarayonlar

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda sodir bo’layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar voyaga yetmaganlar tarbiyasiga bevosita ta’sir ko’rsatmoqda. Ayniqsa, o’smirlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning ortib borayotgani dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va psixologik muammo sifatida ham qaralishi lozim. Shu sababli jinoyatchilikni jazolashdan ko’ra, uni oldini olish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmaganlar o’rtasida jinoyatchilikning asosiy sabablari

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga olib keluvchi omillar turli xil bo’lib, ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, oilaviy muhit. Noto’liq oila, ota-onalar o’rtasidagi nizolar, befarqlik, nazoratning sustligi bolada salbiy xulq-atvor shakllanishiga sabab bo’ladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy muhit. Nosog’lom do’stlar davrasi, ko’cha tarbiyasi, zararli odatlarga moyillik jinoyat sodir etishga undovchi omillardan biridir.

Uchinchidan, psixologik omillar. O’smirlik davrida hissiyotlarning beqarorligi, agressivlik, o’zini namoyon qilish istagi, stress va tushkunlik holatlari jinoyatga olib kelishi mumkin.

To’rtinchidan, ta’lim-tarbiya tizimidagi muammolar. Maktabga qiziqmaslik, o’qishdagi muvaffaqiyatsizlik, o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi ziddiyatlar ham salbiy oqibatlariga olib keladi.

Beshinchidan, axborot texnologiyalarining salbiy ta’siri. Zo’ravonlikni targ’ib qiluvchi o’yinlar, filmlar va ijtimoiy tarmoqlardagi zararli kontent o’smirlar ongiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda oila roli



Oila — shaxs tarbiyasining eng muhim institutidir. Farzandda huquqiy ong, mas’uliyat va ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish, avvalo, oiladan boshlanadi. Ota-onaning farzand bilan doimiy muloqoti, uning qiziqishlari va muammolariga e’tibor berishi, nazorat va ishonchni uyg’unlashtirgan holda tarbiya olib borishi jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim muassasalarining vazifalari

Maktab va boshqa ta’lim muassasalari voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga huquqiy bilimlar berish, huquqbuzarlik oqibatlarini tushuntirish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish samarali natija beradi.

Shuningdek, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, to‘garaklar, sport mashg‘ulotlari va ijtimoiy loyihalarga jalb etish ham profilaktik ahamiyatga ega.

Maktab psixologining roli

Maktab psixologi voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishda yetakchi mutaxassis hisoblanadi. U quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi:

- xavf guruhiga mansub o‘quvchilarni aniqlash;
- individual va guruh psixologik suhbatlar o‘tkazish;
- agressivlik va stressni kamaytirishga qaratilgan treninglar tashkil etish;
- ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikda ishlash.

Psixologik profilaktika o‘smir shaxsida ijobiy xulq-atvor va ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mahalla hamkorligi

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda ichki ishlar organlari, mahalla fuqarolar yig‘ini va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Profilaktik suhbatlar, reydlar, huquqiy targ‘ibot ishlari jinoyat sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish — jamiyatning umumiy vazifasi bo‘lib, bu jarayonda oila, maktab, psixolog, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zaro hamkorligi muhimdir. Profilaktik ishlarni tizimli va uzluksiz olib borish, bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish orqali sog‘lom, huquqiy ongli va barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

Voyaga yetmaganlarning deviant hulq-atvori katta yoshdagilarning og‘ma hulq-atvori qonuniyatlariga muvofiq emasligini qayd etish zarur. Jumladan, kriminologiya umum tomonidan qabul qilingan hulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma’qullanadigan yoki umumiy e’tirof etilgan hulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma’qullanadigan yoki umumiy e’tirof etilgan hulq-atvor normalariga zid bo‘lgan maxsus qadriyatlar tizimi mavjudligi bilan izohlanadi. Va shu sababli jinoyatchilikni, eng avvalo, professional jinoyatchilikni tahlil qilish asosial submadaniyat nazariyasiga asoslanadi. Biroq, voyaga yetmaganlarga tatbiqan bunday yondashuv hamisha ham to‘g‘ri emas. Masalan, ko‘pincha o‘smir sodir etilgan qilmishni inkor etmagan holda, o‘z aybiga iqror bo‘lmaydi yoki o‘zi prinsip jihatidan inkor etmaydigan huquqiy taqiqni buzadi. Ayni vaqtda, ayrim ekspertlar diqqat-e’tiborni hozirgi



vaqtda deviant hulq-atvor guruhiga ko‘proq moddiy jihatdan o‘ziga to‘q oilalarning bolalari va o‘smirlari tushib qolishiga qaratadilar.

Umuman olganda, “bugungi kunda jamiyatning qaysidir qatlamlaridan biri, deviant hulq-atvordan himoyalangan, deb bo‘lmaydi, hat bir o‘smir ta‘sirga va bog‘liqlikka duch keladi. Moddiy jihatdan yetarlilik, ota-onalarning yuqori ijtimoiy mavqeyi bolalarning ijtimoiy normalarga rioya qilishning kafili bo‘la olmaydi”.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Voyaga yetmaganlar deviant xulq-atvor profilaktikasi obyektiv ochib berildi. Ibn Sino yashagan davr tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Giddens E. Sotsiologiya. kitobi mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi.

Voyaga yetmaganlarning xulq-atvori profilaktikasi ishida ommaviy axborot vositalari orqali tashviqiy-ma‘rifiy ishlarni olib borish muhimdir. Jamoatchilik fikri so‘rovi ma‘lumotlari bo‘yicha televideniye o‘smirlar va yoshlar uchun axborot olishning afzalrok manbai hisoblanadi. Shu munosabat bilan ijtimoiy reklamaning roli o‘sadi. Ijtimoiy reklama o‘z takliflari bilan —mehnatni rag‘batlantiradigan, ijobiy maqsadlarga erishish uchun inson faoliyati motivatsiyasini kuchaytiradi. Reklama ijtimoiy qadriyatlarni yoyadi va targ‘ib qiladi. U mamlakatlar va xalqlarning yashash tarzini, andozalarini shakllantirishga ko‘maklashadi... Reklamaning ijtimoiy funksiyasi turmush tarzi targ‘ib qilinishini ham nazarda tutadi.

Deviant hulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga yetmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tashkiliy ta‘sir ko‘rsatishdir. Huquqiy tarbiyani oldini olish imkoniyatlari tiyishning boshqa vositalariga qaraganda ancha samaraliroqdir. Chunki huquqiy profilaktika choralari odatda, birmuncha kechikadi va qilmish sodir etilgandan keyin amal qila boshlaydi. Oldini olish bilan bog‘liq huquqiy choralar —ishlashil uchun u bolaning ongiga qo‘yilishi, uning e‘tiqodi, tajribasining bir qismiga aylanishi kerak. Buni aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish yo‘li bilan erishish mumkin. Bizga ma‘lumki jamiyatimizda sodir qilinayotgan ko‘plab jinoyatlar, jumladan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatlar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganishda voyaga yetmagan jinoyatchilarning ma‘naviy-ahloqiy shakllanishiga ta‘sir etuvchi salbiy holatlarni tahlil qilish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, oilada yoki ko‘cha-ko‘yda turli xil ahloqsiz xatti-harakatlarning guvohi bo‘lgan o‘smir, ahloqsizlik jinoyatlarini ham sodir qilishga qo‘l uradi. Bunday jinoyatlar qatoriga voyaga yetmagan o‘smirlar tomonidan nomusga tegish hollarini ko‘rishimiz mumkin. Xo‘sh, shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, bunday jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, tub mohiyati nimada? Shu o‘rinda biz ushbu jinoyatlarning sodir etilishidagi shartsharoitlarga, sabablarga to‘xtalib o‘tamiz. Voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan juda ko‘pchilik shug‘ullanadi. Bular - ota-onalar, oilani katta yoshdagi boshqa a‘zolari, maktabgacha bo‘lgan, maktab o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari muassasalaridagi o‘qituvchilar jamoat tashkilotlari va boshqalardir. Darhaqiqat, ana shu voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning ular tarbiyasidagi ta‘siri kelajakda o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Oilalardagi ota yoki ona ichuvchi yoki ma‘naviy ahloqsizlik bilan ajralib turadi. Bunda nazarimizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatchilikka qarshi



kurash hamda uning oldini olish birinchi navbatda oila ahloqini qadriyatlarimizga moslashtirishdan boshlashga to‘g‘ri keladi.

O‘smir huquqlari o‘zida butun insoniyatning qadr-qimmatini mujassam etadi. Bu degani bolalik - inson shaxsining rivojlanishida noyob, muhim davr demakdir. Inson huquqlari avvalo, bolalar huquqlaridan boshlanadi. Har qanday jamiyat va barcha insoniyatning kelajagi o‘ta yuqori darajada yosh avlodning moddiy va jismoniy rivojlanish darajasiga, uning inson huquqlarini shaxs va jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini tushunishiga, shuningdek, o‘z taqdiri hamda o‘z harakatlari uchun ma’suliyatiga bog‘liq

Xulosa

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat poydevori qurilmoqda. Bunda davlat qurishni huquqiy savodxon, huquq madaniyatini mustahkam egallagan yosh avlod amalga oshiradi. Buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog‘i zarur. Shu sababli yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini bilishi, qonun hurmat qilishi, ularga so‘zsiz bo‘ysunishi madaniyatiga ega bo‘lishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. Qonun himoyasida|| T. №1. 2001y. 23 bet.
2. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
3. Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent – Sharq, 2002.
4. B.A.Aliyev., G‘.Rafiqov., T.Sultonov., M.Mullajonova., B.Rahmonov. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2005,120-127 b 5. [http// www.sociologu.ru](http://www.sociologu.ru).
5. Ziyo.net